

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8
2023



Tosh o'rmoni
(Navoiy viloyati)

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Elektron nashr. 450 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori
Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari
Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori
Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori
Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar departamenti rahbari
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Imomqulov To'liq Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi	6
Muxiddin Kalonov , i. f. d., professor	
O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi.....	11
Jumayev Olimjon Sadulloevich , tadqiqotchi	
"Yashil" iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari	18
Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li , tayanch doktorant	
Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash.....	24
Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich , PhD	
O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish	27
Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li , PhD	
Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi	34
Mamaraximov Bekzod Erkinovich , i. f. n., dotsent	
Yashil turizmni rivojlantirish va takomillashtirish istiqbollari.....	39
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna , kafedra o'qituvchisi	
Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar.....	44
Axmedov Sayfullo Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili	50
Berdiyev Anvar Abduraxmonovich , tayanch doktorant	
Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati	56
G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish	61
Olimjanova Nigora Alisherovna , mustaqil izlanuvchi	
Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islom moliya bozorining roli.....	65
Saydirasulov Laziz Alimovich , doktorant	
Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar	71
Tulayev Mirzakul Salamovich , kafedra dotsenti; Axmedov Akbarali Sultonmurodovich , i. f. n (PhD)	
Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций	78
Урдабаев Жарылкап Ермакбаевич , независимый исследователь	
Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий.....	83
Махмудов Носир Махмудович , д. э. н., профессор; Фозилова Фирангиза Комиловна , докторант	
Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali foydalanish zarurati.....	89
Sherali Xollijev , kafedra o'qituvchisi	
Turizmni rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni	94
Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari.....	99
Xakimov Ziyodulla Axmadovich , dotsent; Axmadova Rayxona Jasurbek qizi , tadqiqotchi	
"Universitet-ishlab chiqarish" integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari.....	103
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi , iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent	
Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi.....	108
Abdiyeva Flora Botir qizi , tayanch doktorant	
Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar	114
Abdullayev Farxod Ozodovich , mustaqil tadqiqotchi	
Budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va monetar qoidalaridan foydalanishning nazariy jihatlari	119
Hakimjon Hakimov , tadqiqotchi	
Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country	125
Sanakulova Barnogul Rizakulovna , Doctor of Economic Science, Professor;	
Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli , Senior researcher	
Sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	129
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	



Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution.....	133
Mirziyo Sodikov Odiljon o'g'li	
Tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili.....	138
Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li , magistrant	
Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish.....	144
Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li , tayanch doktorant	
Eksport – mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida.....	151
Sharifi Ahmad Sakhrob , mustaqil izlanuvchi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны.....	156
Суюнова Фотима Баходир кизи , базовый докторант	
Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognozi.....	161
Xatamov Nurbek Ochildiyevich , erkin tadqiqotchi	
Inson kapitalini oshirishda xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning o'rni.....	169
G'aniyeva Dilnoza Baxriddin qizi , doktorant	
Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане.....	174
Жуманиязова Феруза , PhD, доцент	
Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalb qilish imkoniyatlari.....	179
Mamatov Bahromjon Shavkatovich , dotsenti, PhD	
Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	184
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna , mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (PhD)	
Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning o'rni.....	190
Nilufar Sharipova , PhD	
Dunyoda qorako'l teriga bo'lgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar.....	197
Nurillayev Jamoliddin Yarashevich , doktorant, i. f. n., dotsent	
Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va ko'rsatkichlari.....	201
O'roqov Mamurali Odil o'g'li , tayanch doktorant	
Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi.....	208
Razzaqov Jasur Hamraboyevich , dotsent, PhD	
Сравнительный анализ методов оценки финансирования инновационных разработок предприятие.....	212
Рузиева Дилноза Абдусаматовна , независимый исследователь	
IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yo'llari.....	216
Saydullayev Shaxzod Sherzodovich , PhD	
Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения.....	222
Хажиев Бахтиёр Душабоевич , dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari.....	227
Adizov Sardor Rashidovich , mustaqil izlanuvchi	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish.....	231
Mamatov Sardor Axmatjonovich , mustaqil tadqiqotchi	
Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili.....	238
Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li , PhD	
Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана.....	243
Мирзахалилова Азизахон Алишеровна , докторант	
Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutsional investorlar faolligini oshirish.....	249
Sultanov Maxmud Axmedovich , dotsent, PhD	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining o'rni.....	254
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li , PhD; Fayzullayev Shuhrat Sherali o'g'li , tayanch doktorant	
Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики.....	259
Отакулов Махамаджон Каримович , PhD, и.о. доцент	
Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.....	264
Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li , PhD	
Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari.....	268
Eshmatov Sanjar Ashirqulovich , mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD)	
O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari.....	272
Gadoyev So'hrob Jumakulovich , PhD, dotsent	
Влияние инвестиционной политики на инновационную деятельность в Республике Корея.....	277
Алимова София Розумбаевна , независимый исследователь	
Hududlarda oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'nalishlarini takomillashtirish.....	282
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich , tayanch doktorant	



Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potensialni rivojlantirish.....	290
N. N. Ismatullayeva , tayanch doktorant	
Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili.....	293
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD	
Temir yo'l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili.....	298
Shakarova Dilfuza Ruzimuratovna , tayanch doktorant	
Формирование кредитного портфеля современного коммерческого банка.....	304
Жураева Нодира Фузулий кизи , ассистент кафедры	
Logistika kompaniyalarida yuklarni sug'urtalashni takomillashtirish yo'llari.....	310
G. Abduvosidova , kafedra o'qituvchisi	
Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari.....	315
Nazarov Shohbek Isroilovich , magistrant	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish.....	320
Mamatov Axmetjon Atajanovich , professor; Allaberganov Zakir Gayibovich , dotsent	
Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budjetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari.....	327
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD; Eshonqulov Asliddin Mamatmurod o'g'li , magistrant	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli.....	330
Norov Akbar Ruzimamatovich	
Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bog'liqligi.....	335
Xoliqov Ulug'bek Rustamovich , t.f.n.	
Sun'iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri: xorijiy tajriba.....	341
N.N.Ro'ziyev	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalb qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	350
Astanov Sherzod Rustamovich , mustaqil tadqiqotchi	
Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies.....	356
Nosirova Charos	
MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari.....	364
Irgasheva Gulbahor Sodiqovna , tayanch doktorant	
Qayta ishlash sanoati korxonlarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari.....	369
Abduxamidova Gulxayo , tadqiqotchi	
Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili.....	374
Xatamov Nurbek Ochildiyeovich , erkin tadqiqotchi	
Международный опыт развития регионов путем привлечения инвестиций через рынок капитала.....	380
Дадаханова Саида Махаммаджон кизи , докторант	
Искусственный интеллект как инструмент управления человеческими ресурсами.....	386
Хайдарова Малика Шакирджановна , преподаватель кафедры	
Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili.....	396
S.T.Toshaliyeva , PhD	
Jahon Savdo Tashkiloti faoliyati va unga a'zo bo'lish xususida.....	403
Ruzibayev Jahongir Nodirovich , tadqiqotchi	
Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida.....	407
Nabiyev Feruz Nurmurodovich , tadqiqotchi	
Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish.....	412
Imomova Nodira Shavkatovna tadqiqotchi, Sultonov Mansur Qilichevich PhD	
Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish.....	416
Xashimova Naima Abitovna , i.f.n., professor; Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li assistent	
Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar.....	421
M.A.Saparova , talaba	
Catalyzing Sustainable Consumer Choices: A Study of Retail Advertising Strategies for Green Development.....	425
Karimova Nafisabonu Djamshidovna , PhD	
Temir yo'l transport tarmog'ining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	433
Fayzullayev Javlonbek Sultonovich , DSc.	
Tashqi mehnat migratsiyasi sohasidagi davlat siyosatining yevropa amaliyoti.....	439
Askarov Zoxidjon Sadikjanovich , Yuridik fanlar falsafa doktori	
Влияние антикоррупционного просвещения на национальную идентичность государства.....	445
Мохоров Дмитрий Анатольевич , кандидат юридических наук, доцент	



TEMIR YO'L TRANSPORT TARMOG'INING IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH



Fayzullayev Javlonbek Sultonovich
DSc., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti v. b.

Annotatsiya: Mazkur maqolada temir yo'l transport tizimining tashkiliy-iqtisodiy asoslarini rivojlantirishni belgilab beruvchi asosiy yo'nalishlar, temir yo'l transport tizimini iqtisodiy rivojlantirishning asosiy vazifalari, temir yo'l transportini strategik integratsiyalash tamoyillari va temir yo'l transport tizimini rivojlantirish modeli taklif etilgan.

Kalit so'zlar: temir yo'l transporti tizimining tashkiliy-iqtisodiy asosi, imitatsion model, yuklarni yetkazib berish, vazifalar irarxiyasi, transport kompleksi, temir yo'l transport infratuzilmasi.

Abstract: In this article, the main directions determining the development of the organizational and economic foundations of the railway transport system, the main tasks of the economic development of the railway transport system, the principles of strategic integration of railway transport and the model of the development of the railway transport system are proposed.

Key words: Organizational and economic basis of the railway transport system, imitation model, delivery of goods, hierarchy of tasks, transport complex, railway transport infrastructure.

Аннотация: В статье рассмотрены основные направления, определяющие развитие организационно-экономических основ системы железнодорожного транспорта, основные задачи экономического развития системы железнодорожного транспорта, принципы стратегической интеграции железнодорожного транспорта и модель железнодорожного транспорта. предлагается развитие системы железнодорожного транспорта.

Ключевые слова: организационно-экономические основы системы железнодорожного транспорта, имитационная модель, доставка грузов, иерархия задач, транспортный комплекс, инфраструктура железнодорожного транспорта.

KIRISH

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning barqaror rivojlanishi asosan transport faoliyati bilan belgilanadi. Dunyoda transport marshrutlari uzunligini 50 mln. kilometrdan ortiq darajada barqarorlashtirish qayd etilgan. Jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi kunda "xalqaro transport bozori 2,2 trillionga teng baholanmoqda (YalMni 6,8%)". Dunyoning aksariyat mamlakatlarida transportni YalMda ulushi 4–9 foizni, aholi bandligida 3–7 foizni tashkil etadi ^[1]. Bir tomondan, transport tizimi milliy iqtisodiyotning rivojlanish darajasini, ikkinchi tomondan mamlakatning xavfsizlik darajasini aks ettiradi.

Jahonda transport tizimini samarali rivojlantirish yuzasidan keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, temir yo'l transport tizimini iqtisodiy rivojlantirish masalalariga majmuaviy yondashish, temir yo'l transport tizimini samarali rivojlanishini ta'minlaydigan iqtisodiy yondashuvlarni shakllantirish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlarda temir yo'l transport tarmog'i rivojlanishining ijobiy ta'sirlari qayd etilgan, shunga qaramay, ushbu ta'sirlarning yo'nalishi va ko'lam bo'yicha kompleks fikr shakllanmagan. Shundan kelib chiqqan holda, temir yo'l transport tizimini iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha izlanishlar olib borish lozimligini belgilaydi.

Mamlakatimizda iqtisodiyotning muhim tarmog'i sifatida transport kommunikatsiyalarini jadal rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, 2022–2026-yillarda Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida ham «transport va logistika xizmatlari bozori va infratuzilmasini rivojlantirish, temir yo'l infratuzilmasini elektrlashtirish darajasini 60 foizga yetkazish va avtomobil yo'llari tarmog'ini jadal rivojlantirish, transport sohasida tashqi savdo uchun "yashil koridorlar" hamda tranzit imkoniyatlarini kengaytirish va tranzit yuk hajmini 15 million tonnaga yetkazish» kabi ustuvor vazifalar belgilangan ^[2]. bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan-



ligi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Mahsulotlarimizni ichki va tashqi bozorlarga yetkazish, ularning tannarxini tushirish uchun transport-logistika sohasini rivojlantirishimiz zarur" ^[3] deb ta'kidladilar. Bu o'z navbatida mamlakat transport-tranzit salohiyatidan va zamonaviy yetkazib berish texnologiyalaridan samarali foydalanishni hamda temir yo'l transport tizimini iqtisodiy rivojlantirish modelini takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borishning maqsadga muvofiqligini ifodalaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Temir yo'l transport tizimini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari bir qator mahalliy va xorijlik olimlari-ning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Ingliz iqtisodchisi Entoni Venablsning fikriga ko'ra transport kompleksi bu ijtimoiy ishlab chiqarishning yuklar va yo'lovchilarni tashishga bo'lgan ehtiyojini qondirishga ixtisoslashgan xalq xo'jaligi tarmoqlari yig'indisi tushuniladi ^[4].

D. Bauersoksning fikricha, an'anaviy usullarga nisbatan yuk tashuvlarini tashkil etishning afzalligi va iqtisodiy samaradorligi masalalarini kiritgan holda multimodal va intermodal yuk tashuvlarini tashkil etish muammolariga alohida e'tibor qaratgan. Shu bilan birga muallif, transport tarmoqlari, transport vositalari va transport kompaniyalari o'z ichiga olgan transport tizimini alohida qayd etadi ^[5].

Mamlakatimiz olimlaridan G'. Samadov, A. Zoxidov, A. Gulamov va M. Ravshanovlarning fikricha "transport tizimi – bu yuk va yo'lovchilarni o'z manziliga yetkazish jarayonida o'zaro aloqasi bo'lgan transport turari va infratuzilmalari majmuasi, ya'ni o'zaro bog'liq bo'lgan transport sektorlari, mehnat resurslari hamda mamlakat iqtisodiyotini samarali boshqarish maqsadida transportning barcha turlarini boshqaruv tizimi tushiniladi" ^[6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Temir yo'l transport tizimini samarali rivojlantirish muammolarini tahlil etish bilan shug'ullangan milliy va xorijlik olimlarning ilmiy izlanishlari natijalari mazkur tadqiqotning nazariy-uslubiy asosi sifatida xizmat qildi. Maqolani tayyorlashda abstrakt va analitik mushohada, qiyosiy va omilli tahlil, indikativ, tanlanma kuzatuv, taqqoslash, iqtisodiy-statistik va boshqa usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon davlatlari iqtisodiyotining samarali rivojlanishida asosiy "qon aylanish" vazifasini bajaruvchi transport kompleksi alohida ahamiyat kasb etadi. Samarali transport tizimi ichki bozorda xom ashyo va mahsulot harakatlarini optimallashtiradi, shu bilan bir qatorda tashqi savdoda mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirib, jahon bozoriga integratsiya jarayonlarini tezlashtirish imkoniyatini beradi. Umuman olganda mamlakatni keng ko'lamda rivojlantirish mintaqalararo iqtisodiy munosabatlarning yuqori sur'atlarda bo'lishi keng ma'noda transport infratuzilmasining samarali faoliyatiga ham bevosita bog'liq ^[7].

Temir yo'l transportidagi tub iqtisodiy islohotlar uni rivojlantirishning optimal modelini ishlab chiqishni taqozo etadi. Shunga muvofiq temir yo'l transportini iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha yangi qarashlar tizimini ishlab chiqish zarurati paydo bo'ladi. Bu temir yo'l ishlab chiqarish tizimining barcha darajalaridagi boshqaruv o'rtasida, shu jumladan tashish jarayonini ta'minlash, yetarli miqdordagi tegishli harakatlanuvchi tarkibning mavjudligi, yo'l sifatini, vagonlarning optimal aylanmasini, samarali rejali ta'mirlashni, logistika, marketing va boshqalarni ta'minlash bo'yicha samarali aloqa hamda hamkorlik qilish maqsadining mavjud emasligi temir yo'l transport tizimidagi mavjud tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining eng muhim muammosi ekanligi bilan tushuntiriladi.

Temir yo'l transporti korxonalari istiqbolli tarmoq va jamiyat manfaatlaridan ustun turuvchi joriy manfaatlarni amalga oshirish bilan mashg'ul. Bu temir yo'l transport tizimini samarali rivojlantirishga maqsadli yondashuvlarni joriy etish va butun tashkiliy-iqtisodiy tizimini uzviy qamrab oladigan hamda uning muhim xususiyatlarini nazariy va uslubiy jihatdan asoslab beradigan umumiy modelini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi. Bugungi kunda transport bozorida barcha ishtirokchilarning o'zaro mutanosib faoliyati konsepsiyasi asosida temir yo'l transportini davlat tomonidan tartibga solishning yangi strategiyasi va modelini ishlab chiqish muammosi dolzarb hisoblanadi. Sifatli boshqaruv bo'yicha yangi qarashlar tizimi ta'sir etuvchi bozor omillarini kuchaytirishni nazarda tutadi, bu esa nafaqat davlat tomonidan tartibga solish, balki davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida hamda bozor munosabatlarining subyektlari sifatida faol hamkorlikda ishlash konsepsiyasiga asoslangan yangi boshqaruv strategiyasi va modelini ishlab chiqishni ko'zda tutadi.

Temir yo'l tarmog'ining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rnini baholash, tarmoqni rivojlantirish istiqbollarini belgilash hamda tendensiyalarini o'rganish va prognozlashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borish temir yo'l tarmog'ining o'rta va uzoq muddatli strategiyasiga, bugungi kundagi siyosatiga bevosita ta'sir etgan holda moddiy-texnika resurslariga, ishchi kuchiga va moliyaviy holatini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojni aniqlashga hamda uning uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqishga asos bo'lib xizmat qiladi.



Temir yo'l transportining rivojlanish darajasi mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, chunki mahsulotning yakuniy narxi tarkibidagi transport xarajatlari va o'z vaqtida yetkazib berishni ta'minlash imkoniyati mahalliy korxonalarning muhim raqobatbardoshlik omili hisoblanadi.

Shuning uchun temir yo'l transport tizimining asosiy faoliyat ko'rsatkichlarini, transport va logistika infrazuzilmalarining rivojlanish bosqichlarini o'rganish hamda tizimda mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunda asosiy masalalardan biri bo'lib kelmoqda. O'zbekistonda mahalliy yuk tashuv hajmining ulushi 5.3% va tranzit tashuv hajmining ulushi 92.5% temir yo'l transportiga to'g'ri keladi.

Tashishga taqdim etiladigan asosiy tovar mahsulotlariga ko'mir, don, neft, ruda, mineral o'g'itlar va boshqa katta hajmli to'kib ortiladigan va suyuq yuklar kiradi (1-jadval).

1-jadval: Temir yo'l transportida ayrim turdagi yuklarni tashish hajmi (ming tonna)¹

Ko'rsatkichlar	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
Toshko'mir	3 971,0	3 712,7	442,9	5 632,6	5 231,0	4 459,2	5 673,8
Neft va neft mahsulotlari	10 773,9	10 661,4	10 961,9	6 769,4	6 156,2	5 951,6	5 372,2
Qora va rangli metallar	959,5	887,2	812,7	1 079,3	1 280,9	1 113,2	1 054,9
Kimyoviy va mineral o'g'itlar	4 304,2	4 381,3	4 049,8	3 451,4	3 602,6	4 210,9	4 641,7
Qurilish mollari	7 728,7	6 690,3	6 329,4	5 475,3	5 575,5	4 071,9	5 607,7
Sement	5 325,7	5 514,1	4 846,4	4 866,4	5 112,0	5 044,5	4 582,1
Yog'och mahsulotlari	46,3	21,2	18,9	27,1	31,2	19,7	23,0
Don va don mahsulotlari	1 266,9	1 269,6	1 662,4	1 737,1	1 645,2	1 898,6	2 000,4
Jami	34 376,2	33 137,8	29 124,4	29 038,6	28 634,6	26 769,6	28 955,8

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, temir yo'l transporti orqali tashiladigan yukning asosiy qismi tog'-kon sanoati mahsulotlariga (ko'mir, neft va neft mahsulotlari, qora va rangli metallar, rudalar) to'g'ri keladi.

Yuklarni yetkazib berishning kechikishi harakat tarkibning to'xtash punktlarida muammolar saqlanib qolganligi bilan izohlanadi, mazkur holat temir yo'l transporti o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni samarali ijrosini ta'minlash uchun harakatlanuvchi tarkibning faoliyat samaradorligini oshirish zarurligini ko'rsatadi. 2-jadvalda umumiy foydalanishdagi ishchi, yuk, harakatlanuvchi tarkibning ayrim turlaridan foydalanishni tavsiflovchi ma'lumotlar keltirilgan.

2-jadval: O'zbekistonda temir yo'l transporti ishi ko'rsatkichlari²

Ko'rsatkichlar	2016	2017	2018	2019	2020	2021
Lokomotiv unumdorligi, sutkasiga ming t/km brutto	947	1015	1056	1110	1190	1200
Yuk vagonining unumdorligi, sutkasiga t/km netto	30	30,4	30,8	31,1	32	32,2
Yuk poyezdining uchastka bo'yicha o'rtacha tezligi, km/soat	32	31	30,6	31,3	30	31
Yuk poyezdining texnik tezligi, km/soat	39,3	39,7	40,4	40,7	41,1	41
Yuk vagonining o'rtacha aylanish vaqti, sutka	4,6	5,78	4,2	4,1	3,84	3,9

So'ngi o'n besh yilda yuk tashish hajmi 27 % va yo'lovchilar soni 86 % ga oshgani bilan mazkur davrda tashish jarayonida foydalanilgan magistral lokomotivlarning inventar parki 18,2 % ga kamayganligini kuza-tish mumkin. Yuk poyezdining uchastka tezligi 9,6 % ga kamayganligi temir yo'l transportida o'tkazuvchanlik qobiliyati ma'lum darajada kamayishiga olib kelgan. 2016–2021-yillarda yuk poyezdlarining texnik va uchastka bo'yicha o'rtacha tezligi belgilangan tezlikdan ancha past bo'lib, fikrimizcha, poyezdlar harakatlanish tezligiga quyidagi omillar salbiy ta'sir ko'rsatmoqda:

- yuk poyezdlarining belgilangan vaqt me'yorida kech qolishi;
- stansiyalardagi texnik nosozliklar;
- stansiyalarda poyezdlar bilan bajariladigan texnologik vaqt me'yorlarining ortishi;
- stansiyadagi nosozliklarni bartaraf etishga sarflanadigan vaqt me'yoringin ortishi;
- yuk poyezdlar harakati bilan bog'liq ishchi xodimlarning salbiy ta'siri.

2019-yilda transport tizimiga kiritilgan umumiy investitsiyalar hajmi 6 % ni tashkil etib, 2009-yilga qaraganda 2,5 barobarga kamaygan, mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy qon tomiri – temir yo'l transportiga jalb etilgan investitsiyalarning hajmi 2014–2016-yillarda 24 % ga oshgani va 2017–2019-yillarda esa 18 % ga kamaygani

1 "O'zbekiston temir yo'llari" AJ ma'lumotlari.

2 "O'zbekiston temir yo'llari" AJ ma'lumotlari.



kuzatilgan (3-jadval). Buning asosiy sababi to'lovchanlik qobiliyati pasayib ketmasligi uchun ayrim loyihalarga investitsiyalar kiritish to'xtatilganligi bilan izohlash mumkin.

Tahlil natijalariga asoslanib 2021-yilda "O'zbekiston temir yo'llari" AJga jalb etilayotgan investitsiyalarning asosiy qismini O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar taxminan 40 %, keyingi o'rinda xususiy mablag'lar 35% ni egallagan.

Fikrimizcha, quyidagilar temir yo'l transport tizimiga investitsiyalar jalb etishning asosiy yo'nalishlari bo'lishi maqsadga muvofiq:

- xorijiy transport va logistika kompaniyalari bilan hamkorlikning yangi shakllarini rivojlantirish;
- "O'zbekiston temir yo'llari" AJ aktivlarini sotish va ijaraga berish, ko'chmas mulkni jalb qilish orqali investitsiya loyihalarida ishtirok etish;
- mamlakat temir yo'l tarmog'ini rivojlantirish vazifalarini amalga oshirishda davlat va biznes kuchlarini birlashtirish imkonini beradigan davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish.

3-jadval: "O'zbekiston temir yo'llari" AJ faoliyatiga jalb etilayotgan investitsiyalar hajmi (mln. dollar)³

Loyiha tashabbuskori va moliyalashtirish manbalari	Yillar					
	2016	2017	2018	2019	2020	2021
Jamiyat mablag'lari	379,28	386,77	251,40	252,99	212,05	205,64
Dalvat byudjeti	109,88	85,11	61,64	72,92	66,28	68,04
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar	212,12	133,61	126,86	81,91	126,55	226,99
Tijorat bank kreditlari	50,0	0,0	17,41	47,03	20,00	1,36
To'g'ridan to'g'ri chet el investitsiyalari	0,0	12,60	29,78	61,48	53,66	51,25
O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobidan	79,90	116,08	40,23	86,92	36,62	22,73
Jami	831,18	734,17	527,32	603,25	515,16	576,00

Transport-logistika xizmatlarining keng ko'lamli nomenklaturasi va ularning sifat jihatidan o'zgarishi mumkin bo'lgan keng diapazoni, xizmatlar raqobatbardoshligiga va sarf-xarajatlari qiymatiga ko'rsatishi mumkin bo'lgan ta'siri, shu bilan birga, boshqa omillar korxona uchun iste'molchilarga logistika xizmati ko'rsatish sohasida aniq, muayyan strategiyaga ega bo'lishini taqozo etadi. Transport turlarida yuk tashish xarajatlarning qiyosiy tahlili keltirilgan (4-jadval).

Qiyosiy asosdagi narxlar tahliliga e'tibor qaratilsa, yurtimiz ishlab chiqaruvchilarining xarajatlari bir muncha yuqoriligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, bir standart vagon yukni (60 t to'qimachilik mahsuloti) bir kilometrga yetkazib berish uchun temir yo'l transporti xizmatiga 7,29 dollar to'lashga to'g'ri keladi. Xuddi shu ko'rsatkich qo'shni Qozog'istonda 4,24 dollarni, Qirg'izistonda 3,65 dollarni, Tojikistonda 6,83 dollarni, Turkmanistonda 2,65 dollarni tashkil etmoqda. Bu esa yurtimiz temir yo'l transportining xalqaro tashuvlarda raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda^[8].

4-jadval: Transport turlarida yuk tashish xarajatlarning qiyosiy tahlili⁴

20 tonna yukni 1km ga avtombilda tashish narxi (tekstil mahsuloti misolida)				
O'zbekiston	Qozog'iston	Qirg'iziston	Tojikiston	Turkmaniston
2,45 \$	1,70 \$	1,55 \$	1,35 \$	0,92 \$
1 ta standart vagon yukni 1 km ga tashish narxi (100 km.gacha)				
O'zbekiston	Qozog'iston	Qirg'iziston	Tojikiston	Turkmaniston
7,29 \$	4,24 \$	2,65 \$	6,83 \$	2,65 \$
Eksport va import uchun kerakli protsedura hujjatlari soni				
10/11	10/12	9/10	11/12	6/5

Shuni ta'kidlash lozim, bugungi kunda mamlakatda yuk tashish faoliyatida xususiy kompaniyalar ulushi muntazam oshib bormoqda. Xususiy kompaniyalarning harakatlanuvchi tarkibi tomonidan amalga oshiriladigan tashuvlar davlat tariflari tizimi ta'sirida shakllangan. Shunga ko'ra, temir yo'l transportini tarkibiy isloh qilishning eng muhim shartlari quyidagilardan iborat edi:

³ "O'zbekiston temir yo'llari" AJ ma'lumotlari.

⁴ Mavjud ma'lumotlar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.




- uzluksiz faoliyat yuritish va tashish jarayonining xavfsizligini ta'minlash;
- iqtisodiy makonning yaxlitligini saqlash va boshqa xorijiy mamlakatlar bilan transport aloqalarini yaxshilash;
- davlat tomonidan tartibga solish va bozor iqtisodiyotining o'z-o'zini boshqarish mexanizmlarini maqbul tarzda birga yuritish.

Shu munosabat bilan quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- tashish jarayonining har bir ishtirokchisi tomonidan xarajatlarning kamaytirilishini rag'batlantiruvchi yaxlit huquqiy va iqtisodiy munosabatlar tizimini yaratish;
- yuk tashuvchilar, harakatlanuvchi tarkib egalari, yuk egalari, shuningdek, tashish jarayonida ishtirok etuvchi boshqa tashkilotlar o'rtasida huquqiy javobgarlikni ta'minlash;
- monopol va raqobatbardosh faoliyat turlarini bosqichma-bosqich ajratish;
- hisobga olish va ulardan foydalanish usullari bo'yicha byudjet va byudjetdan tashqari moliyaviy resurslarni farqlash.

Shu bilan birga, temir yo'l transporti faoliyatining ayrim turlari, ya'ni infratuzilma, magistral temir yo'l tarmog'i xizmatlari, elektr ta'minoti tizimlari va qurilmalari, lokomotiv xo'jaligi va boshqalar texnologik sabablarga ko'ra o'zining monopol xususiyatini saqlab qoldi. O'zbekiston temir yo'l transportini qayta tashkil etish ushbu tarmoqning sifatli boshqaruvi va optimal bozor tuzilmasini joriy etish uchun dastlabki shart-sharoitlarni yaratdi. Quyida temir yo'l transport tizimini iqtisodiy rivojlantirishning imitatsion modeli taklif etildi (1-rasm).



1-rasm: Temir yo'l transport tizimining iqtisodiy mexanizmi⁵

XULOSA VA TAKLIFLAR

Taklif etilayotgan temir yo'l transportini iqtisodiy rivojlantirish modeli davlat, jamiyat va temir yo'l transporti manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan huquqiy, boshqaruv, moliyaviy-iqtisodiy, ekologik va innovatsion jihatlarni o'z ichiga oladi. Temir yo'l transportini kompleks rivojlantirish modelida keltirilgan yo'nalishlar insortingli va autsortingli integratsiyani kuchaytirish, strategik diversifikatsiyani kengaytirish, jahon transport tizimiga qo'shilish orqali uning barqaror va har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi.

5 Olib borilgan tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.



Shunday qilib, keltirilgan rivojlanish modeli zamonaviy sharoitda temir yo'l transportini rivojlantirishning ilmiy asoslangan strategiyasini ishlab chiqish muammosining hal etilishini belgilab beradi. Kompleks rivojlantirishini ta'minlaydigan model temir yo'l transportining strategik raqobatbardoshligini oshirishga, xarajatlarni kamaytirishga, xizmat ko'rsatish darajasini yuksaltirishga va yangi xizmatlarni taklif qilishga imkon beruvchi bozor omillarining rivojlanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://data.worldbank.org/indicator/is.air.good.mt.k1>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 fevraldagi «2022-2026-yillarga o'ljalangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli farmoni. // www.lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24-yanvar 2020-yil.
4. Venables, A. J. (2007). Evaluating Urban Transport Improvements: Cost-Benefit Analysis in the Presence of Agglomeration and Income Taxation. *Journal of Transport Economics and Policy*, 41:173–188 p.
5. Коврижных И.В. (2016) Анализ и оценки эффективности управления в организации / И.В. Коврижных. – Барнул: АФ СибАГС – 86с.
6. Fayzullayev J.S. (2019) Improvement of Economic Efficiency of Development of Railway // *Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR)* ISSN: 2249 –0892 Vol9 Issue–2. http://www.ajtmr.com/papers/Vol9Issue2/Vol9Iss2_P9.pdf
7. Fayzullayev, J.S. (2021) «Economic-mathematical model of evaluating the efficiency of the transport system,» *Economics and Innovative Technologies*: No. 1, Article 1. <https://uzjournals.edu.uz/iqtisodiyot/vol2021/iss1/1>
8. Zohidov A.A. (2018) Markaziy Osiyo transport tizimini samarali boshqarish mexanizmini takkomillashtirish. *Iqt. fan. dok. ... dis. Avtoref., Toshkent.*
9. Frederick Starr S., Filat Yildiz, Martina reiser etc. *The New Silk roads: Transport and trade in Greater Central Asia.* (2007) Monograph Central AsiaCaucasus institute & Silk Road Studies Programm, Washington, D.C.: Johns Hopkins University-SAIS. – 514 p.
10. FayzullayevJ. (2020). Effectiveness of modern methods in the development of the integration transport systems. *Архив научных исследований*, 1(3). <https://tsue.scienceweb.uz/index.php/archive/article/view/3892>
11. Fayzullayev J.S. (2019) Theoretical Aspects of the Transport Logistics System Management // *Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR)* ISSN: 2249–0892 Special Issue–2,. http://ajtmr.com/papers/SplIss2/SplIss2_8.pdf
12. Fayzullayev J.S. (2021) Problems And Status Of Efficiency Of The Transport And Logistics System In The Railway Network , *Archive of Conferences*: Vol. 13 No. : GTIMSC-2021, <https://www.conferencepublication.com/index.php/aoc/article/view/573>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtmoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

